

## TARJIMA JARAYONIDA TILLARARO ALOQA VA LINGISTIK MOSLIKNING AHAMIYATI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
2321-guruh, 3-kurs talabasi  
**Karimova Sevinch Shuxratovna**  
E-mail: [sevinchk444@gmail.com](mailto:sevinchk444@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi tarjima jarayonida tillararo aloqa va uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi lingvistik omillar o'rganiladi. Tarjima faqat so'zlarni bir tildan ikkinchisiga o'tkazish emas, balki ma'no, kontekst va madaniyatni ham yetkazishni talab qiladi. Tadqiqot davomida turli matnlarning tarjimalari tahlil qilinib, lingvistik moslik darajasi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tarjimada kontekstni hisobga olish va semantik moslikni saqlash asosiy omillardan biridir.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tillararo aloqa, lingvistika, semantika, pragmatika, kontekst, tarjima jarayoni.

**Аннотация.** В данном тезисе исследуются лингвистические факторы, влияющие на межъязыковую коммуникацию и её эффективность в процессе перевода. Перевод рассматривается не только как перенос слов с одного языка на другой, но и как передача смысла, контекста и культурных особенностей. В ходе исследования был проведён анализ различных текстов и оценена степень их лингвистического соответствия. Результаты показали, что учёт контекста и сохранение семантической эквивалентности являются ключевыми факторами успешного перевода.

**Ключевые слова:** перевод, межъязыковая коммуникация, лингвистика, семантика, прагматика, контекст, процесс перевода.

**Abstract.** This thesis examines the role of interlingual communication and linguistic accuracy in the translation process. Translation is not only the transfer of words, but also the transmission of meaning and cultural context. Different translated texts were analyzed to evaluate linguistic equivalence. The results showed that context and semantic accuracy play a key role in effective translation.

**Keywords:** Translation, interlingual communication, linguistics, semantics, pragmatics.

**Kirish.** Hozirgi kunda turli xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayib borayotgani tarjimaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tarjima nafaqat til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish jarayoni, balki turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli tarjima jarayonida tillararo aloqa masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayonida ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Xususan, so'zlarning to'g'ri tanlanmasligi, kontekstning yetarli darajada anglanmasligi yoki madaniy farqlarni hisobga olmaslik natijasida matn mazmuni to'liq yoki aniq yetkazilmasligi mumkin. Bunday holatlar tarjimaning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchi tomonidan noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, lingvistik moslikni ta'minlash tarjimaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga xos grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni inobatga olgan holda tarjima qilish yuqori darajadagi aniqlikni talab etadi. Mazkur tadqiqotning

asosiy maqsadi tarjima jarayonida lingvistik moslikni o'rganish hamda tillararo aloqaning samaradorligini aniqlashdan iborat.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqotda kuzatish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va xatolar aniqlab borildi, taqqoslash metodi yordamida esa original matnlar va ularning o'zbek tilidagi tarjimalari o'zaro solishtirildi. Tadqiqot uchun ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan 10 ta matn tanlab olindi va ular tahlil qilindi. Tanlangan matnlar turli mavzulardan olingan bo'lib, tarjima jarayonidagi umumiy muammolarni aniqlashga xizmat qildi.

Matnlar quyidagi mezonlar asosida o'rganildi:

- so'zma-so'z tarjima holatlari
- kontekstga moslik
- semantik aniqlik
- madaniy moslik

Tahlil jarayonida har bir matn original variant bilan taqqoslanib, tarjimada yuzaga kelgan kamchiliklar va ularning sabablari aniqlab chiqildi. Shuningdek, 10 nafar talaba tomonidan bajarilgan tarjimalar ham o'rganilib, ular o'zaro solishtirildi. Bu orqali talabalar orasida eng ko'p uchraydigan xatolar va tarjima qilishdagi qiyinchiliklar aniqlashga erishildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjimalarning sifati turlicha bo'ldi:

- 4 ta tarjimada (40%) kontekst to'liq hisobga olingan va natija aniq bo'lgan
- 3 ta tarjimada (30%) qisman moslik kuzatilgan
- 3 ta tarjimada (30%) so'zma-so'z tarjima sababli ma'no buzilgan

Eng ko'p uchragan xatolar:

- idiomalarni noto'g'ri tarjima qilish
- madaniy farqlarni hisobga olmaslik
- ortiqcha so'zma-so'zlik

• Bu natijalar Eugene Nida fikrlarini tasdiqlaydi, ya'ni u tarjimada "formal equivalence" emas, balki "dynamic equivalence" muhimligini ta'kidlagan.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida faqat grammatik bilimning o'zi yetarli emas. Tarjimon matnning umumiy mazmunini chuqur anglab, uni maqsad tilida mos va tushunarli tarzda ifodalay olishi zarur. Noam Chomsky nazariyasiga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki ularni amaliy jihatdan to'g'ri qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, tarjima jarayonida lingvistik kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Peter Newmark tarjimini ikki asosiy turga — semantik va kommunikativ tarjimaga ajratadi. Tadqiqot davomida kommunikativ tarjima usuli samaraliroq ekanini kuzatildi, chunki u o'quvchiga yanada tushunarli va tabiiyroq matn yaratishga imkon beradi. Umuman olganda, tarjima jarayonida semantika va pragmatika muhim o'rin tutadi, chunki ular matn mazmunini to'g'ri yetkazish va o'quvchiga ta'sirini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida tillararo aloqa samaradorligi lingvistik moslikka bevosita bog'liq. Tarjimada kontekstni to'g'ri tushunish, madaniy farqlarni hisobga olish hamda mazmunni aniq va ravon yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aniq va kontekstga mos tarjimalar eng samarali hisoblanadi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv asosida amalga oshirilgan

tarjimalar o'quvchi uchun yanada tushunarli va qabul qilishga oson bo'ladi. Kelajakda tarjima sohasida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, ayniqsa lingvistik va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini kengroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. MIT Press.
2. Nida, E. (1964). Toward a science of translating. Brill.
3. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
4. Catford, J. C. (1965). A linguistic theory of translation. Oxford University Press.
5. Baker, M. (1992). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
6. House, J. (2015). Translation quality assessment. Routledge.
7. Venuti, L. (1995). The translator's invisibility. Routledge.